



IJIRSET

International Journal of Innovative Research in
SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2347-6710



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 11, Issue 3, March 2022

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA

Impact Factor: 7.569



9940 572 462



6381 907 438



ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

Analysis of Approaches Needed in Practical Teaching of Natural Science to Primary School Students

Ochilov Fariddun Izatulloyevich¹

Lecturer at the Department of "Methods of teaching Primary Education". Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region, Uzbekistan.¹

AABSTRACT: This article discusses the approaches, competencies, and levels of methodological analysis that are important for the practical teaching of science to primary school students. The concepts of competence and competence were also analyzed.

KEYWORDS: methodological analysis, natural sciences, competence, competence, competency approach, personal approach, scientific approach.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TABIIY-ILMIY BILIMLARNI AMALIY O‘RGATISHDA ZARUR BO‘LGAN YONDASHUVLAR TAHLILI

Ochilov Fariddun Izatulloyevich

“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni amaliy tarzda o‘rgatish uchun muhim bo‘lgan yondashuvlar, kompetensiyalar, ularning metodologik tahlil darajalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: metodologik tahlil, tabiiy-ilmiy bilimlar, kompetensiya, kompetentlilik, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsiy yondashuv, ilmiy yondashuv.

Bugungi kunga kelib, ta’lim sifatini baholash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ta’limning sifati va samaradorligini baholashda esa o‘quvchilarida hosil bo‘lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarining muayyan faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajalari bilimlarni o‘zlashtirganliklari, umummadaniy darajalari, ularda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi sifatida aniqlanadi. O‘quvchilarining kompetentliliqi ta’limda kompetensiyaviy yondashuvga amal qilish mahsuli hisoblanadi. O‘quvchilarida kompetensiyalarni shakllantirish ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim shartidir.

Kompetensiyaviy yondashuv tushunchasining izohi kabi uning qo‘llanilishida ham bir qator murakkab holatlar mavjud. Pedagogika fanida ushbu holatlarni aniqlash va ilmiy jihatdan tavsiflash vazifasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Muhim masalalardan biri ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni muayyan izchillikda tatbiq etishdan iborat. Boshlang‘ich sinflardan boshlab, kompetensiyaviy yondashuvni dars jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarga ta’limning keyingi bosqichlarida o‘z faoliyatlarini samarali amalga oshirish imkonini beradi hamda zarur hayotiy ko‘nikmalarini egallashlariga asos yaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv bilan vujudga kelgan vaziyat tizimli yondashuvni ishlab chiqish orqali takomillashtiriladi.

Kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi doirasida “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarining tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. **Kompetensiya** keng qamrovli tushuncha bo‘lib, inglizcha “competence”, ya’ni “mahorat”, “qobiliyat” degan ma’nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar va individ shaxsiy sifatlarining namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidir. **Kompetentlilik** deganda esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va tajribalari, ijtimoiy-professional mavqeい va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi [5].

Bu yondashuvni ta'lim jarayoniga, birinchi bo'lib, Angliya olimi psixolog Dj.Raven olib kirgan. U kompetentlilikni ishchi-xodimlarni ishga qabul qilish jarayonida ularning shaxsni shakllantirishdagi shaxsiy sifatlarini, individual mustaqil fikr yuritishlarini hisobga olgan holda qo'llagan [2; 32-b.], [1; 7-b.].

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ish yuritish rus olimi A.V.Xutorskoy tadqiqotlarida keng yoritilgan. U kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini bir-biridan farqlab: "kompetensiya deganda o'quvchining ta'lim tizimiga tayyorgarligining oldindan berilgan talablari, kompetentlilik deganda esa uning amaldagi shaxsiy sifat (xarakteristika)lari nazarda tutiladi" – deb ta'kidlaydi [4; 15-b.], [1; 7-b.]. Shu nuqtai nazardan kompetentlilik tarkibiga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyat, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, ularni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvga oid juda ko'p qarashlar, g'oyalar vujudga keldi. Kompetensiyaviy yondashuvga ilm sohalariga ko'ra: pedagogik, psixologik, antropologik, falsafiy, fanlararo bog'liqlik sifatida qarash mumkin. Kompetensiyaviy yondashuvga maqsadga yo'naltirilgan holda faoliyatli, madaniyatshunoslikka asoslangan, shaxsiy yondashuv nuqtai nazaridan qarash talab qilinadi [5]. O'rganishning tashkiliy shakllariga ko'ra kompetensiyaviy yondashuvga tizimli, kopleks, tarkibiy jihatdan qarash mumkin.

Biz tahlil qilgan turli yondashuvlar bir-birini inkor qilmaydi, balki boyitadi. Ular kompetensiyaviy yondashuvning turlicha talqin etilishini ta'minlaydi. Aksariyat yondashuvlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir qadar cheklangandir. Shuningdek, umumiy xarakterdagi hodisalar, holatlar, jarayonlarni ifodalovchi yondashuvlar ham mavjud.

Kompetensiyaviy yondashuvning metodologik tahlil darajasi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Yondashuvlarning metodologik asoslarini tahlil qilish natijasida kompetensiyaviy yondashuvning umumiyy manzarasi ayon bo'ladi. Ushbu yondashuvning metodologik tahlili mazkur hodisa o'zining to'rtta darajasiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kompetensiyaviy yondashuvning yuqori darajasini uning falsafiy metodologiyasi tashkil etadi. Uning mazmuni bilishning umumiyy prinsiplarini o'zida mujassamlashtiradi. Dunyoqarashga oid ushbu nuqtai nazar moddiy borliqning manzarasi, uning kelib chiqishi, dastlabki sabab-oqibat aloqlari, bilish jarayonlarining mavjud jihatlari va uning interpitatsiyasini aniqlovchi hodisalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda "Tabiiy fanlar"ni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiyaning ikkinchi darajasi tadqiqotning umumilmiy prinsiplari va me'yorlarini belgilab beradi, tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish jarayonida kompetensiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan umumiyy yondashuvlar tahlil qilinadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ushbu yo'nalishda tadqiq etilayotgan muammolarning o'ziga xos jihatlari barcha o'quv predmetlari uchun bir xilda xos bo'lib, ilmiy bilishning bir qator xususiyatlari bilan bog'liq holda tahlil etiladi. S.P.Rubinshteynnинг ta'biricha [3], kompetensiya insonning shaxsiy sifatlari sirasiga kiradi. Bu esa umumiy ilmiy yondashuvning yuqori ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur yondashuvning muhimligi shundaki, uning natijasida o'quv jarayonining samaradorligi ta'minlanadi. Samaradorlik esa o'quv jarayoni natijasini baholash orqali aniqlanadi. Metodologik tahlilning ushbu darajasi barcha fanlar uchun bir xilda taalluqli bo'lib, quyidagi tushunchalar orqali aniqlanadi: olam, sifat, miqdor, axborot, teskari aloqa kabi.

Muayyan o'quv predmetlari o'qitish metodikasini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Masalan, kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatishda metodologik tahlilning ushbu darajasidan samarali foydalanishga harakat qildik. Biz tadqiqotimizda qo'llaniladigan atamalar, ularning mazmum-mohiyati, yondashuvlar va prinsiplarini ushbu daraja doirasida tahlil qilishga intildik.

Tahlilning to'rtinchisi darajasi sof metodik xarakterga ega bo'lib, ushbu daraja doirasida biz tadqiqotimizning o'ziga xos jihatlarini ochishga muvaffaq bo'ldik, o'z qarashlarimiz hamda ilmiy-metodik yondashuvlarimizni tahlil qildik.

Kompetensiyaviy yondashuvni umumiy tarzda tahlil qilganimizda uchta muammoni ilgari surish zarurligi ayon bo'ldi.

Birinchidan, tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida qaysi metodologik asosga tayanish lozimligini aniq ko'rsatib berish.

Tahlillarimizning mantiqiy asosidan kelib chiqqan holda shuni ta'kidash lozimki, tizimli yondashuv ikkinchi darajaga mos kelib, o'quvchilarining umumilmiy tushunchalar va dunyoqarashini shakllantirish jarayonini ta'minlasa, kompetensiyaviy yondashuv aniq, yagonaligi bilan metodologik tahlilning uchinchi darajasiga muvofiq keladi. Shuning uchun ham ushbu yondashuv tizimlilik, izchillik xarakteriga ega. Shunga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv tizimli ta'lim sifatida tadqiq etiladi. U o'zida bir-birini taqozo qiluvchi tizimli hodisalarini mujassamlashtiradi. Masalan, bilimlar, ko'nikmalar va malakalar.

Mutaxassislar "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarini bir vaqtning o'zida qo'llashni tavsiya qiladilar. Bu so'zlar o'zaro sinonim emas, ularning har biri o'zining ma'nosiga ega. Kompetensiya so'zining izohidan kelib chiqqan holda uning amaliy faoliyatga aloqadorligini ko'rsatish mumkin. "Kompetensiya" va "kompetentlilik"

tushunchalari potensial-dolzARB, shaxsiy-kognitiv xarakterga ega. [6]

Mavjud ilmiy yondashuvlarga ko'ra, kompetensiya qoidalar, bilimlarning tarkibi va yig'indisidan iborat. Kompetensiyaning bunday sharhi va qo'llanilishi kompetensiyaviy yondashuvning dastlabki izohi bilim, ko'nikma, malakalardan unchalik farqlanmasligini anglatadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida muayyan ta'limi vazifalarga yechim izlanadi. Mazkur yondashuv ta'limning shaxs taraqqiyotiga yo'nalganligini ifodalab, o'quvchilarda bir qator shaxsiy sifatlarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Kompetentlilik ta'lum jarayonida kasbiy-ijtimoiy vazifalarni yechish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Kompetentlilikning to'liq izohi shaxsning sifatlarini ifodalovchi hodisa sifatida ta'lum mazmunini modernizatsiyalash bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan mutaxassislarning ishlarida o'z ifodasini topgan (R.G.Safarova, R.X.Djurayev, Yu.M.Asadov).

Kompetentlilik bilim, ko'nikma va malakalarga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha o'zida bir qator boshqa tushunchalarni ham mujassamlashtiradi. Kompetentlilik tushunchasi nafaqat kognitiv yoki jadallstiruvchi texnologik mohiyatga, balki moyillikka asoslangan axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi mohiyatga ham ega. Mazkur qarashlar A.V.Xutorskoy, Yu.V.Frolov, D.A.Maxotin, Yu.G.Tatur kabi olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Kompetentlilik tushunchasi o'zida bir qator tarkibiy qismalarni mujassamlashtiradi. Ular: 1) kompetentlilikni namoyon qilishga tayyorlik, bu o'rinda tayyorgarlik shaxsiy quvvatlarni safarbar qilishda ifodalanadi; 2) kompetentlilikning mazmunini belgilaydigan bilimlarga ega bo'lish; 3) standart va nostandard vaziyatlarda o'z kompetentliligini namoyon qilish tajribasini o'zlashtirish; 4) kompetentlilikning mazmun-mohiyati va uni ifodalovchi ob'ektlarga nisbatan munosabatning aks etirilishi; 5) kompetentlilik-ning natijalari va uning namoyon bo'lishini hissiy-irodaviy boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lish kabilalar.

O'quvchilarda tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish jarayonida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish ko'pgina yondashuvlarga tayanishni taqozo etadi:

1. O'z salomatligini saqlash kompetensiyasi: 1) sog'lom turmush tarziga oid, chekish, alkogol ichimliklarni iste'mol qilish, giyohvandlik, OITSning zarari haqidagi bilimlar va me'yorlar; 2) shaxsiy gigiyena va kundalik turmush tarzi me'yorlari haqidagi bilimlar; 3) insонning jismoniy tarbiyasi, sog'lom turmush tarzini tanlash erkinligi haqidagi bilimlarga ega bo'lish. Ushbu bilimlarni hayotiy faoliyat jarayoniga tatbiq etishga oid tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lish; 4) salomatlikni saqlashni qadriyat sifatida qabul qilish, salomatlik holati, undagi o'zgarishlarga e'tibor qaratish qoidalalarini bilish.

2. Muloqot kompetensiyasi: 1) muloqot kompetensiyasi doirasida jamiyat a'zolari bilan munosabatda bo'lish; 2) atrofdagilar bilan o'zaro hamkorlik qilish; 3) sindoshlari, o'rtoqlari, sheriklari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini egallash; 4) ish yuritish, ishchan yozuv amaliyoti, ishchan o'yinlar, biznes tijorat tilini bilish; 5) boshqa tillarda muloqot qila olish, turli darajadagi kommunikativ vazifalarni yechish; 6) qadriyat sifatida muloqotdan zavq olish, u bilan o'z kechinmalarini bog'lish; 7) muloqot jarayonlarini boshlash, yo'naltirish, nazorat qilish va boshqarish kabilalar tashkil etadi.

3. Kompyuter bilan ishlay olish kompetensiyasi: 1) axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash va taqdim etish; 2) multimediali vositalardan samarali foydalana olish; 3) o'zining elektron pochtasiga ega bo'lish, Internet sahifalarida ishlay olish; 4) kutubxonada kitoblar bilan ishlay olish; 5) og'zaki, yozma shakllarda taqdim etilgan axborotlar bilan ishlay olish kabilalar kiradi.

4. Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyasi: 1) tabiiy-ilmiy bilimlarni dastlabki tarzda egallash; 2) o'zlashtirilgan tabiiy-ilmiy bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; 3) o'rganilgan tabiiy-ilmiy bilim va ko'nikmalarini notanish vaziyatlarda qo'llay olish; 4) o'zlashtirilgan tabiiy-ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatlarini kiradi.

Yuqorida bayon qilingan nuqtai nazarlar "kompetentlilik" tushunchasining asosini tashkil qilib, bu o'rinda kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarga tabiiy-ilmiy bilimlarni taqdim etishda juda muhimdir. Ushbu yondashuvga tayanish bugungi kunda ta'lum natijasining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuvga tayanish, o'quv dasturlari va darsliklarni ushbu yondashuv asosida tayyorlash o'quv jarayoni va o'qitish metodikasi samaradorligini ta'minlashda dolzarblik kasb etadi.

Ta'lum mazmunini tanlashda kompetensiyaviy yondashuvga tayanish alohida ahamiyatga ega. Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati ustida to'xtalish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatishning umumfalsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy va metodik, jarayonli jihatlari oolib beriladi. Bu o'rinda turli yondashuvlar tatbiq etiladi.

Kompetentlilik o'zida bir qator shaxsiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ular: intiluvchanlik, yo'nalganlik, o'z oldiga maqsad qo'yish, o'z-o'zini hissiy-irodaviy jihatdan boshqarish, qadriyatli-fikriy munosabatni ifodalash kabilalar. Tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish jarayonida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish ularning shaxs sifatida kamol topishini jadallashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham "Tabiiy fanlar"ni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muayyan kompetensiyalarni shakllantirish ularning moddiy borliq, jamiyat va tabiat bilan faol

munosabat o'rnatishlarini ta'minlaydi.

Ta'lim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv bilan bir qatorda shaxsiy-faoliyatli yondashuvga ham tayanish lozim. Chunki ushbu yondashuvlar doirasida o'quvchilarining shaxsiyati, faoliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual, hissiy-irodaviy hamda boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosida ularda mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalganlik, tanlov erkinligi, bag'rikenglik, tabiatga ongli munosabat tuyg'ulari ham rivojlantiriladi. Boshqa tomondan esa shaxsiy-faoliyatli yondashuv o'quvchilar va o'qituvchilarining sub'ekt-sub'ekt munosabatlarga kirishishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarlarda kompetentililikning barcha tarkibiy qismlarini shakllantirish, ularda ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirish layoqatini hosil qilishiga imkoniyat yaratadi, ta'limning tashkiliy boshqaruv shakllarini qo'llashda qulaylikni vujudga keltiradi.

Ushbu yondashuvni amalda qo'llash natijasida shaxs layoqatlarini shakllantirish jarayonini insonparvarlikka yo'naltirish imkoniyati tug'iladi. Kompetensiyaviy, shaxsiy-faoliyatli yondashuv bilan bir qatorda o'quv jarayonida vaziyatli-muammoli yondashuvdan ham foydalaniadi. Mazkur yondashuvlar doirasida o'quvchilarga tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish asosida tayanch va fanga oid kompetensiyalar hosil qilinadi. Bunda turli muammolarga bag'ishlangan o'quv vaziyatlari tashkil etiladi. Ushbu vaziyatlar atrof-olamni muammoli vaziyatlar orqali o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarlarda muammoli vaziyatlar orqali atrof-muhitga nisbatan qadriyatlari munosabatda bo'lish tajribasini ham hosil qilish talab etiladi.

Pedagog olimlar tomonidan o'quv topshiriqlarini o'quv jarayoni birligi sifatida tadqiq qilingan, ular tomonidan o'quvchilarlarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda turli yondashuvlardan foydalaniish imkoniyatlari ochib berilgan¹. Ushbu yondashuv doirasida o'qituvchilar izchillik xarakteridagi ijobiy-rolli topshiriqlarni oldindan modellashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday topshiriqlar o'quvchilarining ijtimoiy munosbatlar bilan bog'liq bo'lgan vazifalarini yechishlariga ko'maklashib, uning o'zaro muvofiq keladigan kommunikativ jihatlarini jadal o'zlashtirishlariga asos yaratadi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchilarlarda faol fuqarolik, salomatlikni muhofaza qilish, tabiatni e'zozlash, atrof-muhit bilan muloqotga kirishish kompetensiyalarini shakllanadi. Ushbu kompetensiyalarining shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich bajarilib, texnologik yondashuvni o'zida mujassamlashtirgan holda ijtimoiy jihatdan tashkil etilgan o'quv harakatlarini muayyan izchillikda amalga oshirish, didaktik topshiriqlarni samarali yechish imkonini beradi.

Yuqoridaagi fikrlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kompetensiyaviy yondashuv tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rgatish jarayonida o'quvchilarlarda tayanch kompetensiyalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva Sh.A. va boshqalar. Zamonaviy o'qituvchining kompetensiyasi. – T.: "Komron Press", 2015. 92 B.
2. Равен Дж. Развитие способностей личности. – М.: Торговый дом Гранд, 2009. – С. 132.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М.: 1996. - 440 с.
4. Хуторской А.В. Составляющая педагогическую компетентност. – Москва: Сентябрь, 2010. – С. 56 с.
5. Жабборова, О. М., Умарова, З. А. (2021). БОЛАЛАР ПЕДАГОГИКАСИ МАЗМУНИ ВА УНИ КЛАСТЕР УСУЛИДА ЎҚИТИШ. Academic research in educational sciences, CSPI conference 1, 59-62.
6. Мардонов, Ш. К., Жабборова, О. М (2021). БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШДА ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕР УСУЛИ. Academic research in educational sciences, CSPI conference 1, 142-145.
7. Жабборова, О. М. (2021). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА КЛАСТЕР УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ МЕХАНИЗМЛАРИ. Academic research in educational sciences, CSPI conference 1, 63-67.
8. Жабборова, О. М., Умарова, З. А. (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШНИНГ КЛАСТЕР УСУЛИ. Academic research in educational sciences, CSPI conference 1, 68-71.
9. Мардонов, Ш. К., Жабборова, О. М (2021). ОЛИЙ БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАРИ. Academic research in educational sciences, CSPI conference 1, 119-121.
10. Жабборова, О. М. (2021). ЎҚИТИШНИНГ КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИДА ЎҚУВ ФАНЛАРИНИ ТАНЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(6), 1095-1099.
11. Жабборова, О. М. (2021). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ ЭЛЕКТРОН-МОДУЛЛИ УСУЛЛАРИ. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(5), 1294-1299.

¹ Карап: Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. Учебник для вузов – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.

12. Жабборова, О., Ташпулатова, Д. (2021). Бошлангич синф ўқитувчиларининг малака талаблари. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
13. Каримжонов, А., Жабборова, О. (2021). Ян Амос Коменскийнинг таълим-тарбияга оид қарашлари. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
14. Жабборова, О. М., Ахмедова, Н. Ш. (2021). Бошлангич синф ўқувчиларини миллий ғоя асосида тарбиялаш омиллари. *Ekonomika i sotsium*, 4(83).
15. Jabborova, O. M. (2021). Systems for The Development of Primary Education in The Process of Higher Pedagogical Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(04), 449-453.
16. Jabborova, O. M., & Mardonov, Sh. Q. (2021). Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari. Xalq ta'limi jurnali, 2.
17. Жабборова, О. М. (2021). Мураккаб шароитларда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш. *Ekonomika i sotsium*, 4(83).
18. Жабборова, О. М. (2021). Бошлангич таълимда интеграциялаш масалалари. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 702-706.
19. Жабборова, О. М., Бахтиёрова, С. Э. (2021). Бошлангич таълим йўналишида хорижий тилларни ўқитишнинг янгича ёндашувлар тизими. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1040-1045.
20. Жабборова, О. М., Ташпулатова, Д. М. (2021). Ўзбекистон янги мафкурасининг педагогик талқини. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 584-589.
21. Жабборова, О. М., Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошлангич синф ўқитувчиларига қўйиладиган талаблар. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
22. Жабборова, О. М., Чимпулатова, Ч. Д. (2021). Бошлангич таълимда Тарбия фанининг кластер усулида ўқитилиши. *Academic research in educational sciences*, 2(1).
23. Жабборова, О. М., Умарова, З. А. (2021). “Тарбия” фанини кластер усулида ўқитиша педагогик конфликтларни бартараф этиш. *Academic research in educational sciences*, 2(1).
24. Jabborova, O.M., Umarova, Z. A. (2021). Pedagogical conflicts in primary school students-as an important social-pedagogical problem. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 516-523.



INNO SPACE
SJIF Scientific Journal Impact Factor

Impact Factor:
7.569



ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

9940 572 462 **6381 907 438** **ijirset@gmail.com**

www.ijirset.com



Scan to save the contact details